



SOLIQNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOLIQDAN QOCHISHNING HUQUQIY-IQTISODIY CHEGARALARI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

Oymatova Gulinur

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-9631-143X

1989gulinur1989@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish tushunchalarining nazariy-huquqiy mohiyati tadqiq etilgan, ularning o'zaro farqlari ilmiy manbalar va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ushbu ikki tushunchani bir-biridan ajratishga xizmat qiluvchi asosiy mezonlar va farqli jihatlar umumlashtirilib, ularning amaliyotdagi namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mezonlarning amaliy qo'llanilishi misollar orqali yoritilib, soliq nizolarining oldini olish hamda soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliqni optimallashtirish, soliqdan qochish, soliqni rejalashtirish, soliq huquqi, soliq ma'murchiligi, ishbilarmonlik maqsadi, huquqni suiiste'mol qilish, soliq nazorati, soliq nizolari.

ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ГРАНИЦЫ НАЛОГОВОЙ ОПТИМИЗАЦИИ И УКЛОНЕНИЯ ОТ УПЛАТЫ НАЛОГОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Ойматова Гулинур

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В данной статье исследуется теоретико-правовая сущность понятий налоговой оптимизации и уклонения от уплаты налогов, а также анализируются их различия на основе научных источников и практических подходов. В ходе исследования систематизированы основные критерии и отличительные признаки, позволяющие разграничить данные понятия, а также рассмотрены особенности их проявления на практике. Кроме того, практическое применение указанных критериев проиллюстрировано на конкретных примерах, а также разработаны рекомендации по предупреждению налоговых споров и повышению эффективности налогового администрирования.

Ключевые слова: налоговая оптимизация, уклонение от уплаты налогов, налоговое планирование, налоговое право, налоговое администрирование, деловая цель, злоупотребление правом, налоговый контроль, налоговые споры.

LEGAL AND ECONOMIC BOUNDARIES BETWEEN TAX OPTIMIZATION AND TAX AVOIDANCE: A THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS

Oymatova Gulinur

Gulistan State University

Abstract. This article examines the theoretical and legal essence of the concepts of tax optimization and tax avoidance and analyzes their differences based on academic sources and practical approaches. The study systematizes the main criteria and distinguishing features that make it possible to differentiate these two concepts and explores the specifics of their manifestation in practice. In addition, the practical application of these criteria is illustrated through examples, and recommendations are developed to prevent tax disputes and improve the efficiency of tax administration.

Keywords: tax optimization, tax avoidance, tax planning, tax law, tax administration, business purpose, abuse of rights, tax control, tax disputes.

Kirish.

So'nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarning raqamlashtirilishi, soliq ma'murchiligining takomillashuvi hamda soliqqa tortishning turli rejimlari, imtiyozlari va preferensiyalarining kengayishi soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini qonuniy asosda boshqarish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday sharoitda tadbirkor uchun jiddiy huquqiy va moliyaviy tavakkalchiliklarni keltirib chiqaruvchi soliqlardan qochishga urinishdan ko'ra, soliqlarni rejalashtirish va optimallashtirish tobora manfaatliroq hamda iqtisodiy jihatdan samaraliroq yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki soliq yukini qonunchilikda nazarda tutilgan mexanizmlar orqali maqbullashtirish qo'shimcha huquqiy xavflarni keltirib chiqarmasa, soliqlardan qochish esa aksincha, aniqlanish ehtimolining ortib borishi va javobgarlik choralarining kuchayishi sababli soliq to'lovchi uchun jiddiy xavfdir. Biroq amaliyotda soliqlarni qonuniy optimallashtirish bilan noqonuniy soliqdan qochish o'rtasidagi chegarani aniqlash har doim ham oson emas.

Soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni chegaralash masalasi zamonaviy soliq huquqi va soliq ma'murchiligining eng dolzarb nazariy hamda amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida soliq to'lovchilarning soliq yukini kamaytirishga qaratilgan harakatlarining huquqiy chegaralarini aniq belgilash zarurati tobora ortib bormoqda. Soliq majburiyatlarini minimallashtirishga qaratilgan faoliyat har doim ham noqonuniy deb baholanmaydi, chunki amaldagi qonunchilik soliq to'lovchilarga turli imtiyozlar, preferensiyalar va maxsus soliq rejimlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliq tizimlarining murakkablashuvi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida soliqni rejalashtirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar ham yangi mazmun kasb etmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda soliq organlari va sudlar tomonidan soliqni optimallashtirishning iqtisodiy mazmuni, ishbilarmonlik maqsadi hamda soliq to'lovchining halolligi kabi mezonlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan harakatlarning qonuniyligi nafaqat ularning tashqi huquqiy shakli, balki real iqtisodiy mohiyati asosida ham baholanmoqda.

Soliqdan qochish odatda soliq majburiyatlarini bajarishdan qasddan bo'yin tovlash, daromadlarni yashirish, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish yoki xo'jalik operatsiyalarini soxtalashtirish orqali namoyon bo'lsa, soliqni optimallashtirish qonunchilikda nazarda tutilgan imkoniyatlardan foydalanish asosida soliq yukini kamaytirishga qaratilgan qonuniy faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Biroq ushbu tushunchalarning qonunchilikda yagona va aniq ta'rifga ega emasligi, shuningdek ularni farqlash mezonlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ilmiy munozaralarning davom etishiga sabab bo'lmoqda. Natijada ayrim hollarda qonuniy soliq rejalashtirish harakatlari soliqdan qochish sifatida baholanishi yoki aksincha, noqonuniy sxemalar optimallashtirish ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, soliq nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhitini yaratishga qaratilgan islohotlar sharoitida mazkur masalaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu munosabat bilan soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish tushunchalarining nazariy-huquqiy mohiyatini chuqur tahlil qilish, ularni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy mezonlarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida O'zbekiston amaliyotidagi mavjud muammolarni baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish tushunchalari keng tadqiq etilgan. Zemlyanskayaning ta'kidlashicha, dastlab soliqni optimallashtirish XX asrning 70–80-yillaridagi G'arb ilmiy adabiyotlarida soliqlardan qochishning bir elementi sifatida talqin

qilingan. U o'sha davrda soliq majburiyatlarini kamaytirish maqsadida soliq qonunchiligidagi bo'shliqlar va kamchiliklardan foydalanish bilan bog'langan (Zemlyanskaya, 2007).

Keyinchalik ushbu tushuncha mazmunan rivojlanib, soliq majburiyatlarini qonunchilik doirasida oqilona boshqarishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin etila boshlandi.

Xususan, Bryzgalin (1999) soliqni optimallashtirishni korxona faoliyatini shunday tashkil etish jarayoni sifatida izohlaydiki, bunda soliq to'lovlari amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda minimal darajaga keltiriladi. Mazkur yondashuv optimallashtirishni soliq majburiyatlarini qasddan bajarmaslik yoki yashirishni nazarda tutuvchi soliqdan qochishdan aniq farqlaydi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda esa "soliqni optimallashtirish" tushunchasiga nisbatan "soliqni rejalashtirish" atamasi kengroq qo'llaniladi. Biroq mazkur tushunchalar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har ikkisi ham amaldagi qonunchilik doirasida soliq majburiyatlarini samarali boshqarish va soliq yukini maqbullashtirishga qaratilgan.

Jumladan, iqtisodchi olimlarimiz Toshmurodova va Elmirzayev (2007) soliqlarni rejalashtirish tashkilotning umumiy maqsadlaridan kelib chiqishini hamda uning mazmuni faqat soliq to'lovlarini kamaytirish bilan cheklanmasligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, soliq to'lovlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar soliqlarni rejalashtirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur yondashuv soliqni optimallashtirish va soliqni rejalashtirish tushunchalarining o'zaro yaqinligini ko'rsatadi.

Soliqdan qochish holatlarini tadqiq qilgan "soliq to'lashdan bo'yin tovlash bu – qonunda belgilangan soliqlarni to'lash bo'yicha qonunda belgilangan harakatlarni qasddan qilmaslik shaklida namoyonlik (harakatsizlik) hisoblanadi" deb ta'riflaydi (Efimichev, 2000). Ayrim tadqiqotchilar soliqdan qochishni ijtimoiy xavfli hodisa sifatida baholaydilar. Xususan, Nudel (2007) "soliq to'lashdan bo'yin tovlash ijtimoiy xavflidir, jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliqqa tortish sohasida qonunda belgilangan soliqlarni va (yoki) yig'implarni to'liq yoki qisman to'lamaslikka qaratilgan harakat yoki harakatsizligidir" deb aytadi).

O'zbekistonlik olimlardan professorlar Vahobov va Jo'raev (2019) o'zlarining "Soliqlar va soliqqa tortish" darsligida soliqdan qochishning usullarining nazariy tahlillarini keltirib o'tadi. Ularning ta'kidlashicha, soliqqa oid qonunbuzilishlarning tipik ko'rinishlaridan biri xo'jalik sub'ektlari tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo'lmasdan, soliq inspeksiyalariga soliq hisobini, balans hisobotlarini topshirmasdan moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish o'rtasidagi asosiy farq harakatlarning huquqiy mazmuni hamda maqsadida namoyon bo'ladi. Aksariyat olimlar soliqni optimallashtirishni amaldagi qonunchilik doirasida soliq yukini maqbullashtirishga qaratilgan qonuniy faoliyat sifatida baholagan bo'lsalar, soliqdan qochishni soliq majburiyatlarini qasddan bajarmaslik yoki yashirish bilan bog'liq noqonuniy harakat sifatida talqin qiladilar. Mazkur tushunchalar o'rtasidagi chegara aniq emasligi sababli ularni farqlash mezonlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumilmiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish tushunchalarining nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berishda mantiqiy tahlil va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Turli olimlarning ilmiy qarashlarini o'rganish va taqqoslashda qiyosiy tahlil usulidan, milliy va xorijiy qonunchilik normalari hamda ilmiy adabiyotlarni o'rganishda tizimli yondashuv va huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida olingan natijalarni umumlashtirishda induksiya, deduksiya va umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Adabiyotlar va amaliy manbalar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish o'rtasidagi chegarani aniqlash zamonaviy soliq

huquqining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda ushbu ikki tushuncha ko'pincha bir-biriga yaqin ko'rinishiga qaramay, ularning huquqiy mohiyati va iqtisodiy oqibatlari tubdan farqlanadi. Soliqni optimallashtirish amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan imkoniyatlardan foydalanish orqali soliq yukini qonuniy ravishda kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, soliqdan qochish soliq majburiyatlarini noqonuniy ravishda kamaytirish yoki ulardan bo'yin tovlashni anglatadi. Shu sababli mazkur kategoriyalarni farqlashda aniq mezonlarni belgilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalar tahlili asosida soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni chegaralashning to'rtta asosiy mezonini ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm). Bular: ishbilarmonlik maqsadining mavjudligi, operatsiyalarning haqiqiy iqtisodiy mazmuni, soliq to'lovchining halolligi va shaffofligi hamda huquqni suiiste'mol qilmaslik tamoyilidir. Mazkur mezonlar alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda qo'llanilgandagina soliq to'lovchining xatti-harakatlariga to'g'ri huquqiy baho berish imkonini yaratadi.

Soliqni optimallashtirishni soliqdan qochishdan farqlovchi asosiy mezonlar



1-rasm. Soliqni optimallashtirishni soliqdan qochishdan farqlovchi asosiy mezonlar

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Birinchi mezon – ishbilarmonlik maqsadining mavjudligi hisoblanadi. Unga ko'ra, xo'jalik operatsiyasi yoki biznes qarori faqatgina soliq yukini kamaytirishga emas, balki muayyan iqtisodiy natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi lozim. Korxona faoliyatini kengaytirish, yangi bozorga chiqish, xarajatlarni optimallashtirish yoki investitsion jozibadorlikni oshirish kabi maqsadlar ishbilarmonlik maqsadi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Agar operatsiyaning yagona maqsadi soliq to'lovlarini kamaytirishdan iborat bo'lsa va u mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmasa, bunday holat soliqdan qochish belgisi sifatida baholanishi mumkin.

Ikkinchi mezon operatsiyaning haqiqiy iqtisodiy mazmuni bilan bog'liq. Zamonaviy soliq huquqida xo'jalik operatsiyalarining huquqiy shakliga emas, balki ularning real iqtisodiy mohiyatiga ustuvor ahamiyat beriladi. Mazmunning shakldan ustunligi tamoyili aynan shu yondashuvni ifodalaydi. Amaliyotda ayrim bitimlar tashqi tomondan qonuniy ko'rinsa-da, ularning iqtisodiy mazmuni mavjud bo'lmasligi yoki sun'iy ravishda shakllantirilgan bo'lishi mumkin. Shu sababli operatsiyalarning haqiqiyliigi, iqtisodiy zarurati va keltiradigan natijalari har tomonlama baholanishi lozim.

Uchinchi mezon soliq to'lovchining halolligi va shaffofligi bilan bog'liq. Ushbu mezon daromadlar, xarajatlar va xo'jalik operatsiyalarining to'liq hamda ishonchli aks ettirilishini nazarda tutadi. Soliq hisobotlarida noto'g'ri ma'lumotlar keltirish, daromadlarni yashirish, soxta hujjatlardan foydalanish yoki moliyaviy axborotni buzib ko'rsatish halollik tamoyiliga zid hisoblanadi. Aksincha, soliq qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalardan ochiq foydalanish soliqni optimallashtirishning qonuniy shakli sifatida baholanadi.

To'rtinchi mezon huquqni suiiste'mol qilmaslik tamoyilidir. Soliq to'lovchi qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va imtiyozlardan ularning asl maqsadiga zid ravishda foydalanmasligi kerak. Ayrim hollarda soliq to'lovchilar qonunchilikdagi bo'shliqlar yoki imtiyozlardan

foydalanib, tashqi tomondan qonuniy ko'ringan, biroq iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan sxemalarni qo'llashlari mumkin. Bunday harakatlar huquqni suiiste'mol qilish sifatida baholanib, soliqni optimallashtirish emas, balki soliqdan qochish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mazkur mezonlardan kompleks foydalanish bir tomondan soliq to'lovchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ikkinchi tomondan esa davlatning fiskal manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quyida mazkur mezonlarning amaliyotda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatuvchi soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishga oid ayrim misollar keltirilgan (2-rasm):

Soliqni optimallashtirish	Soliqdan qochish
Soliq imtiyozidan qonuniy foydalanish	Soxta hujjatlar orqali soliq imtiyozi olish
Xarajatlarni hujjatlar bilan tasdiqlab soliq bazasini kamaytirish	Soxta xarajatlarni ko'rsatib soliq bazasini kamaytirish
Investitsiya loyihalari uchun berilgan preferensialardan foydalanish	Investitsiya qilmagan holda preferensiyalarni qo'llash
Qonunda nazarda tutilgan amortizatsiya usulini tanlash	Asosiy vositalar qiymatini sun'iy oshirish orqali amortizatsivani ko'paytirish
Xodimlarni fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida qonuniy jalb qilish	Xodimlarni norasmiy ishlatish va daromadlarini yashirish
Soliq to'lovlarini qonunda belgilangan muddatlarda kechiktirish imkoniyatidan	Soliq majburiyatlarini umuman deklaratsiya qilmaslik
QQSni qonuniy ravishda hisobga olish va qaytarish	Soxta hisob-fakturalar orqali QQSni qaytarib olish
Daromad va xarajatlarni to'liq va shaffof hisobga olish	Tushumning bir qismini yashirish
2 ta mustaqil biznesni alohida yuritish	1 ta biznesni qog'ozda bir nechta korxonaga bo'lib ko'rsatish

2-rasm. Soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish holatlari

Manba: asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Demak, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni chegaralashga oid nazariy mezonlarning amaliyotda to'g'ri qo'llanilishi soliq nizolarining kamayishiga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligiga hamda davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarini o'rnatidagi muvozanatning ta'minlanishiga xizmat qiladi.


Masalan, chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonaning yillik aylanmasi amaldagi qonunchilikda belgilangan chegaraga yaqinlashgan deb faraz qilamiz. Korxona rahbariyati aylanmaning keskin oshishi natijasida boshqa soliq rejimiga o'tish va qo'shimcha soliq majburiyatlari yuzaga kelishini hisobga olib, biznes rivojlanish strategiyasini qayta ko'rib chiqishi mumkin. Agar korxona ayrim faoliyat yo'nalishlarini iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan alohida subyektlarga ajratsa, har bir subyekt o'zining mustaqil boshqaruvi, xodimlari, moddiy-texnik bazasi va moliyaviy hisobiga ega bo'lsa, bunday holat soliqni optimallashtirish sifatida baholanishi mumkin.

Biroq agar amalda yagona biznes faoliyati saqlanib qolgan holda, faqat soliq yukini kamaytirish maqsadida bir nechta yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil

etilsa, ular bir xil manzilda faoliyat yuritrsa, umumiy xodimlar, omborlar va boshqaruv tizimidan foydalansa, bunday holatda biznesning sun'iy ravishda bo'linishi yuzaga keladi. Mazkur vaziyatda xo'jalik yurituvchi subyektlarning formal mustaqilligi ularning haqiqiy iqtisodiy mustaqilligini anglatmaydi va bunday harakatlar soliqdan qochish sifatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, bir xil natija – soliq yukining kamayishi – turli huquqiy bahoga ega bo'lishi mumkin. Farq soliq to'lovchining maqsadida, xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunida va biznes tuzilmasining haqiqiy mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish o'rtasidagi farqlarni qonuniylik darajasi, qo'llaniladigan usullar, shaffoflik darajasi hamda ular keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni bir-biridan farqlovchi jihatlar

Manba: asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Soliq nizolari hamda ehtimoliy huquqiy javobgarlik xavfini kamaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari tomonidan samarali soliq muvofiqligi tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda muntazam ichki soliq auditlarini o'tkazish, soliq xavflarini baholash, murakkab xo'jalik operatsiyalari bo'yicha oldindan huquqiy va soliq ekspertizasini amalga oshirish, shuningdek xo'jalik faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlarni to'liq va tizimli yuritish alohida ahamiyatga ega.

Ayniqsa, xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunini asoslovchi hujjatlarni shakllantirish, bitimlarning real biznes maqsadlariga ega ekanligini tasdiqlash hamda soliq hisobi ma'lumotlarining haqiqiy iqtisodiy jarayonlarga mosligini ta'minlash kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq nizolarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq qonunchiligi va soliq ma'murchiligi amaliyotidagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish ham tadbirkorlik subyektlarining huquqiy xavfsizligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Soliq qonunchiligi talablariga rioya etish faqatgina soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish bilan cheklanmaydi. Soliq to'lovchilar tomonidan qabul qilinayotgan biznes qarorlarining iqtisodiy asoslanganligi, ularning real ishbilarmonlik maqsadlariga qaratilganligi hamda huquqni suiiste'mol qilish belgilarining mavjud emasligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli soliqni rejalashtirish jarayonida malakali soliq maslahatchilari va huquqshunoslar bilan hamkorlik qilish, ehtimoliy xavflarni oldindan aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish tashqi ko'rinishidan o'xshash bo'lishiga qaramay, ularning huquqiy mohiyati, qo'llaniladigan usullari va huquqiy oqibatlarini jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Soliqni optimallashtirish amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan imkoniyatlar, imtiyozlar va maxsus soliq rejimlaridan foydalanish orqali soliq yukini qonuniy ravishda kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, soliqdan qochish soliq majburiyatlarini noqonuniy ravishda kamaytirish yoki ulardan bo'yin tovlashni anglatadi.

Tadqiqot davomida soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni chegaralashda ishbilarmonlik maqsadining mavjudligi, operatsiyalarning haqiqiy iqtisodiy mazmuni, soliq to'lovchining halolligi va shaffofligi hamda huquqni suiiste'mol qilmaslik tamoyili asosiy mezonlar ekanligi aniqlandi. Aynan mazkur mezonlar soliq to'lovchilarning xatti-harakatlariga huquqiy baho berishda va qonuniy soliq rejalashtirishni noqonuniy harakatlardan ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy soliq huquqida operatsiyalarning formal huquqiy shakliga emas, balki ularning iqtisodiy mazmuniga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu esa soliqni optimallashtirish va soliqdan qochish o'rtasidagi chegarani aniqlashda "mazmun shakldan ustun" tamoyilining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. O'zbekiston sharoitida ham mazkur yondashuvni izchil qo'llash soliq nizolarining kamayishiga va soliq ma'murchiligi samaradorligining oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni ajratish mezonlarini soliq qonunchiligida yanada aniqroq belgilash;
- ishbilarmonlik maqsadi, iqtisodiy mazmun va huquqni suiiste'mol qilmaslik tamoyillarini qo'llash bo'yicha yagona amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- biznesni sun'iy ravishda bo'lish, daromadlarni taqsimlash va boshqa soliq xavfi yuqori bo'lgan operatsiyalar bo'yicha metodik ko'rsatmalarni takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar uchun soliq rejalashtirish va soliq qonunchiligiga rioya etish bo'yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish;
- soliq nizolarini ko'rib chiqishda operatsiyalarning formal belgilaridan ko'ra ularning haqiqiy iqtisodiy mazmuniga ustuvor ahamiyat berish amaliyotini rivojlantirish.

Umuman olganda, soliqni optimallashtirish va soliqdan qochishni aniq chegaralash davlatning fiskal manfaatlarini ta'minlash, soliq to'lovchilarning qonuniy huquqlarini himoya qilish hamda mamlakatda adolatli va barqaror soliq tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Alstadsater A., Johannesen N., Zucman G. Tax (2022) Evasion and Tax Avoidance // *American Economic Journal: Economic Policy*. Vol. 14, No. 4. – P. 251–284.

Elimirzayev S.E. (2017) *Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari* // Monografiya. - T.: "Iqtisod-moliya".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2019) PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (2019). Toshkent.

Toshmurodova B.(2007) *Soliq nazorati: o'quv qo'llanma*. – T.: Iqtisod-moliya.

Vahobov A., Jo'rayev A. (2019). *Soliqlar va soliqqa tortish*. Darslik. –T: "IQTISOD-MOLIYA". - 408 b.

Брызгалин А. В., Берник В. Р., Головкин А. Н. (1999) *Методы налоговой оптимизации, или как избежать опасных ошибок*. — М.: Аналитика-Пресс — 144 с.

Далгатов, Р. Г. (2025) Разграничение уклонения от уплаты налогов и налоговой оптимизации // *Молодой ученый*. № 40 (591). — С. 166-170.

Ефимичев П.С. (2000) *Предмет и пределы доказывания по уголовным делам о налоговых преступлениях* // *Журнал Российского права*. . – №9.

Землянская И. С., Гончаров А. И. (2007) *Налоговая оптимизация: развитие понятийного аппарата* // *Налоги. Информационно-аналитическая газета*. — № 23. — С. 15–18.

Нудел С.Л. (2007) *Вопросы квалификации уголовно-наказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов* // *Научные ведомости* № 2(33)..